



Marifat KAZAKOVA

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, Buxoro davlat texnika universiteti

E-mail: k.marifat1970@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, tarix fanlari doktori, DSc, O.Rashidov taqrizi asosida

## THE ROLE AND PROFESSIONAL CAPACITY OF FEMALE PERSONNEL IN ENSURING PUBLIC SECURITY

Annotation

This article analyzes the role of female personnel in the public security system, their professional activities, and their significance in ensuring social stability. The study examines their participation in community engagement, conflict resolution, and preventive activities, and provides a scientific rationale for their contribution to the development of professional capacity and the improvement of system effectiveness. The findings indicate that female personnel are an important factor in strengthening public security.

**Key words:** Public security, female personnel, law enforcement agencies, gender approach, preventive activity, professional competence, social stability.

## РОЛЬ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ЖЕНЩИН-СОТРУДНИКОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется роль женщин-сотрудников в системе обеспечения общественной безопасности, их профессиональная деятельность и значение в обеспечении социальной стабильности. В исследовании рассматривается участие женщин-сотрудников во взаимодействии с населением, урегулировании конфликтных ситуаций и профилактической деятельности, а также научно обосновывается их вклад в развитие профессионального потенциала и повышение эффективности системы. В результате делается вывод о том, что женщины-сотрудники являются важным фактором укрепления общественной безопасности.

**Ключевые слова:** Общественная безопасность, женщины-сотрудники, правоохранительные органы, гендерный подход, профилактическая деятельность, профессиональная компетентность, социальная стабильность.

## JAMOAT XAVFSIZLIGIDA XOTIN-QIZ XODIMLARING ROLI VA KASBIY SALOHIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida xotin-qiz xodimlarning o'rni, ularning kasbiy faoliyati va jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayol xodimlarning aholi bilan ishlash, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish hamda profilaktika jarayonlaridagi ishtiroki yoritilib, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va tizim samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy asoslanadi. Natijada, xotin-qiz xodimlar jamoat xavfsizligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri ekani xulosa qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Jamoat xavfsizligi, xotin-qiz xodimlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, gender yondashuv, profilaktika faoliyati, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy barqarorlik.

**Kirish.** Zamonaviy davlatchilik sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining samaradorligi nafaqat institutsional mexanizmlar yoki normativ-huquqiy bazaga, balki unda faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy salohiyati, ma'naviy-axloqiy yetukligi va ijtimoiy mas'uliyat darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bois so'nggi yillarda mazkur tizimni takomillashtirishda inson omiliga ustuvor ahamiyat berilib, xodimlar tarkibining sifat ko'rsatkichlarini oshirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta'minlashda xotin-qiz xodimlarning ishtiroki masalasi tobora dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yo'nalish faqat gender tenglik tamoyillarining ifodasi sifatida emas, balki tizim samaradorligini oshiruvchi muhim funksional omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, xotin-qiz xodimlar aholi bilan muloqot o'rnatish, huquqbuzarliklarning oldini olish, oilaviy nizolarni bartaraf etish hamda ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatishda yuqori natijadorlikka erishmoqda.

Bu borada Sh.Mirziyoyev tomonidan xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgani mazkur masalaning strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Shundan kelib chiqib, ichki

ishlar organlari tizimida xotin-qiz xodimlar ishtirokini kengaytirish, ularning kasbiy salohiyatini ro'yogga chiqarish hamda xizmat faoliyati samaradorligiga ta'sirini ilmiy asosda tahlil etish dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So'nggi yillarda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, xususan, davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish organlaridagi ishtiroki ilmiy e'tiborda. Xorijiy tadqiqotlar (McSweeney, Swindell, Discover Policing) ayollarning kasbiy faoliyatdagi to'siqlari va institutsional cheklavlarini ko'rsatadi, milliy tadqiqotlar esa (Rustamova, Toliboyeva, Radjapova, Aburahimova) O'zbekistonda gender siyosati, uning huquqiy bazasi va ichki ishlar organlaridagi xodimlarni qo'llab-quvvatlash choralarni tahlil qiladi. Shuningdek, zamonaviy statistika va tahliliy hisobotlar (Jahon banki, Ziyotova va Mamaraximov) gender tenglikka erishish strategiyalari va ularni amalga oshirishdagi muammolarni ko'rsatadi.

Rasmiy manbalar va Prezident nutqlari xotin-qizlarning boshqaruv tizimidagi ulushini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili xotin-qizlarning aynan ichki ishlar organlaridagi faoliyati va ijtimoiy himoyasi yetarlicha

o'rganilmaganini ko'rsatadi, bu esa mazkur sohada chuqur tadqiqotlar olib borish zaruratini ochib beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda mavzuni to'liq tushunish uchun ikki xil yondashuv ishlatildi. Birinchi tomondan, nazariy tahlil orqali ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar, Prezident nuqtalari va statistika ma'lumotlari o'rganildi. Bu orqali O'zbekistonda xotin-qizlarning boshqaruv va huquqni muhofaza qilish organlaridagi roli va davlat siyosati haqida umumiy tasavvur hosil qilindi.

Ikkinchi tomondan, empirik tahlil orqali rasmiy va elektron manbalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Shu orqali ayollarning boshqaruvdagi ulushi, ijtimoiy himoyasi va gender tenglik borasidagi real vaziyat aniqlangan. Tadqiqotda, shuningdek, siyosatshunoslik va huquqiy tahlil usullari ham qo'llanib, gender siyosatining amaliy samaradorligi va mavjud muammolar aniqlangan.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida ichki ishlar organlari tizimini modernizatsiya qilish va xodimlarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur sohada huquqiy-normativ bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar bilan ishlash faoliyatini boshqarishning yangi mexanizmlari va amaliyotini keng joriy etish maqsadida 4 ta qonun, 30 dan ortiq Prezident qaror va farmonlari, shuningdek, 150 dan ortiq boshqa qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib[8], ushbu hujjatlar doirasida ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishga oid tartib-qoidalar ham belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat tizimning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini takomillashtirishni, balki unda faoliyat yurituvchi xodimlarning, jumladan, xotin-qiz xodimlarning huquqiy maqomi, kasbiy salohiyati va ijtimoiy himoyasini yanada mustahkamlashni ham qamrab olmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida xotin-qiz xodimlarning ishtiroki masalasi islohotlarning uzviy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ilovasida belgilangan 69-maqсад "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faolligini ta'minlash" deb nomlanib[2], unda Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar siyosatining ustuvor yo'nalishlari kompleks tarzda belgilab berilgan. Shu ma'noda, davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'zni hamda mavqeini mustahkamlash masalasi mamlakat taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xotin-qizlarning huquqiy himoyasini ta'minlash borasida O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligini ham izchil rivojlantirmoqda. Davlatimiz 1991-yilda mustaqillikka erishganidan buyon inson huquqlarini himoya qilishga doir 60 dan ortiq xalqaro hujjat, deklaratsiya va shartnomalarga qo'shilgan bo'lib, ularning 23 tasi bevosita xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan[3]. Ushbu xalqaro me'yorlar, konvensiyalar, deklaratsiyalar va shartnomalarning milliy qonunchilikka joriy etilishi ayollarga bo'lgan e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi

natijasida davlat boshqaruvida gender ishtirokining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. 2017-yil boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 26,6 foizni tashkil etgan bo'lsa[4], 2022-yilda bu ko'rsatkich 28,2 foizga ko'tarilgan[5]. Keyingi bosqichda esa ushbu ulush 33 foizgacha oshgani kuzatiladi[6]. Ushbu dinamik o'sish xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan siyosatning amaliy natijasini aks ettiradi hamda O'zbekistonning gender tenglik sohasidagi xalqaro majburiyatlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi muhim institutsional qadamlaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Turli darajadagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1500 nafardan ortiq xotin-qiz, jumladan, vazirlik va idoralarda, shuningdek, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda[7]. Kadrlar salohiyatini izchil shakllantirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi tuzilgan bo'lib, ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo'yicha tizimli o'quvlar muntazam ravishda tashkil etilmoqda[8].

Qonun chiqaruvchi hokimiyati sohasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmogda. 2019-yil dekabr oyida Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra, ayol deputatlar soni Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizini, ayol senatorlar Senat a'zolarining 25 foizini, mahalliy kengashlarda esa 25,6 foizni tashkil etdi[9]. Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekiston parlamentini jahondagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa olib chiqib, mamlakatning gender siyosati sohasidagi xalqaro reytingdagi nufuzini mustahkamladi.

Ijro hokimiyati organlari doirasida ham xotin-qizlarning yuqori lavozimlarga tayinlanishi kuzatilmogda. Jumladan, 6 nafar ayol hokim lavozimiga tayinlangan bo'lib, 2020-yilda mamlakat tarixida ilk bor O'zbekistonning xorijiy davlatdagi elchisi sifatida Feruza Yuldasheva Mahmudova faoliyat boshladi[10]. Bu holat ijro hokimiyatining barcha bo'g'inlarida gender ishtirokining kengayib borayotganini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Huquqni muhofaza qilish tizimida xotin-qiz xodimlarning ishtiroki alohida ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi, zero mazkur soha an'anaviy ravishda erkaklar ustunligi bilan tavsiflanib kelgan. Biroq so'nggi yillardagi tendensiyalar ushbu sohada ham sezilarli siljishlar yuz berayotganini ko'rsatmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, dunyo mamlakatlarining aksariyatida politsiya xodimlari tarkibida erkaklar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu holat ko'p jihatdan mazkur davlatlardagi demografik tarkib, tarixiy an'analar hamda huquqni muhofaza qilish sohasiga doir ijtimoiy-madaniy qarashlar bilan izohlanadi[11]. Biroq so'nggi o'n yillikda kuzatilayotgan tendensiyalar ushbu sohada sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganini ko'rsatmoqda.

UNECEning 2019-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, politsiyada xizmat qiluvchi ayol xodimlar soni bir qator mamlakatlarda ko'zga ko'rinarli darajada oshgan. Xususan, Litva Respublikasida bu ko'rsatkich 40 foizga, Latviya Respublikasida 37,8 foizga yetgan bo'lsa, AQSh va Rossiyada 30 foizni tashkil etgan[12]. Mazkur raqamlar Yevropa va rivojlangan davlatlarda gender ishtirokining huquqni muhofaza qilish tizimida ham jadal sur'atlar bilan kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Qo'shma Shtatlarda ayollarning huquqni muhofaza qilish organlaridagi ishtiroki uzoq muddatli ijobiy o'zgarishlar dinamikasini namoyon etmoqda. Jumladan, 1987-yilda atigi 7,6 foizni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2007-yilga kelib 12 foizga ko'tarilgan[13], 2023-yilga kelib esa mamlakatdagi barcha huquqni muhofaza qilish organlarida ayollarning ulushi 28 foizga yetgan[14]. Ushbu dinamika o'ttiz yildan ortiq davom etgan tizimli islohotlar va gender tenglikka

yo'naltirilgan kadrlar siyosatining natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Kanada tajribasi ham e'tiborga molikdir. 2016-yilda ayol zobitlar mamlakat politsiya xodimlarining 21 foizini tashkil etgan. Gollandiya bu borada yanada yuqori natijaga erishgan bo'lib, 2021-yilda politsiya kuchlarining 42 foizini ayollar tashkil etgan[15]. Shvetsiyada esa 2019-yilda politsiya xodimlarining 33 foizi ayollardan iborat bo'lgan[16]. Skandinaviya mamlakatlarining yuqori ko'rsatkichlari ushbu mintaqada gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli davlat siyosatining huquqni muhofaza qilish sohasidagi bevosita natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Quyidagi jadval yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni qiyosiy tarzda umumlashtiradi: 1-jadval.

Turli davlatlarda huquqni muhofaza qilish tizimida ayollar ulushining qiyosiy ko'rsatkichlari

Davlat	Ulushi	Yil
Gollandiya	42%	2021
Litva	40%	2019
Latviya	37,8%	2019
Shvetsiya	33%	2019
Rossiya	30%	2019
AQSh	28%	2023
Kanada	21%	2016
O'zbekiston	10,2%	2022

Mab: O'zbekistonda gender tengligi tahlili. – Vashington: Jahon banki, 2024.

Xalqaro qiyosiy tahlil O'zbekistondagi mavjud vaziyatni obyektiv baholash imkonini beradi. Jumladan, O'zbekiston ichki ishlar organlarida ayollar ulushi 2018-

yildagi 8,7 foizdan 2022-yilga kelib 10,2 foizga ko'tarilgan[17]. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, Ichki ishlar vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik lavozimini egallagan, 6 nafar ayol esa hokimlik vazifasini bajargan[18]. Mazkur ko'rsatkichlar keyingi yillarda yanada oshib bormoqda.

Yuqoridagi raqamlar xalqaro miqyosda yetakchi davlatlar bilan taqqoslaganda hali sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatsa-da, ularning ijobiy o'sish dinamikasi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqbolli yo'nalishda kechayotganini tasdiqlaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur ko'rsatkichlarni oshirish ko'p jihatdan uzoq muddatli va izchil kadrlar siyosatini yuritish, kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish hamda gender tenglikni institutsional jihatdan mustahkamlash orqali ta'minlanadi.

**Xulosa.** O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning xizmatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan izchil davlat siyosatini shakllantirdi. Normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi hamda xalqaro tajribaning joriy etilishi natijasida xotin-qizlarning kasbiy faolligi ortib, ular huquqni muhofaza qilish tizimida tobora muhim subyektg aylanmoqda. Shu bilan birga, ularning rahbarlik lavozimlaridagi ulushini oshirish, xizmat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy-huquqiy himoyani kuchaytirish kelgusidagi ustuvor vazifalar sifatida saqlanib qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

- Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 365-b.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2021-yil 6-mart [Elektron resurs]. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4212>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi [Elektron resurs]. – URL: <https://www.xs.uz/uz/post/ozbekiston-boshqaruv-tizimida-ayollar-ulushi-33-foizga-eti>
- McSweeney F.K., Swindell S. Women in the Experimental Analysis of Behavior // The Behavior Analyst. – 1998. – Vol. 21, No. 2. – P. 193–202.
- Абзалов Э.М. Проблемы формирования правовой культуры молодежи: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.01. – Ташкент, 2000. – 23 с.
- Толибоева Н.О. Хотин-қизларга оид давлат сиёсатининг трансформациялашув жараёнлари // Ўтмишга назар. –2021. –№ 2. – Б. 139.
- Абураҳимова F.Y. Хотин-қизларни ијтимоий муҳофаза қилішнинг ҳуқуқий асослари // Оила институтини муҳтакамлашнинг долзарб масалалари: халқаро илмий-амалий конференсиya материаллари. – Toshkent: "Mahalla va oila", 2021. – B. 35–38.
- Radjapova L. Ichki ishlar organlari ayol xodimlarining ijtimoiy himoyasiga oid ayrim fikrlar // Yangi O'zbekiston akademik tadqiqotlar jurnali. – 2024. – 1-maxsus son (12). – B. 61–64.
- Rustamova M.M. Mustaqillik davrida O'zbekistonda xotin-qizlarga oid davlat siyosati va huquqiy asoslari // Yangi O'zbekiston: fan, ta'lim va innovatsiyalar. – 2024. – T. 1, № 1. – B. 454–457.
- O'zbekistonda gender tengligi tahlili. – Vashington: Jahon banki, 2024. – B.9-10.
- Ziyotova A., Mamaraximov Q. O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi: muammo va yechimlar // Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash... xalqaro konferensiya materiallari. – 2025. – B. 689–695.
- Women in Law Enforcement // Discover Policing. – 2013. – 4 October.
- Senat majlisi: O'zbekistonning birinchi ayol elchisi tasdiqlandi // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA). – 2020. – 19-iyun.
- O'zbekiston va Markaziy Osiyo: mintaqada gender tenglikni ta'minlashda hamkorlikning o'rni muhim // Yuz.uz. – 2020. – 29-dekabr. URL: <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-markaziy-osiyo-mintaqada-gender-tenglikni-taminlashda-hamkorlikning-orni-muhim>
- Politie steeds diverser, maar het is nog niet genoeg // NOS Nieuws. – 2022. – 13-aprel.
- "Yuksalish Talks": boshqaruvda ayollar // "Yuksalish" umummilliy harakati. – 2023. – 17-noyabr [Elektron resurs]. – URL: [https://yumh.uz/uz/news\\_detail/626](https://yumh.uz/uz/news_detail/626)
- Gender distribution of full-time law enforcement employees in the United States in 2023 // Statista [Elektron resurs]. – URL: <https://www.statista.com/statistics/195324/gender-distribution-of-full-time-law-enforcement-employees-in-the-us/>
- Polis igar och idag // Polismuseet. – 2024. – 6-noyabr [Elektron resurs]. – URL: <https://polismuseet.se/veta-mer/polishistoria/polis-igar-och-idag/>
- Ayol sudyalari ulushi 30 foizga yetkaziladi // Xabar.uz. – 2026. – 5-mart [Elektron resurs]. – URL: <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/ayol-sudyalari-ulushi-30-foizga-eti>
- O'zbekistonda boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 26,6 foizga yetdi // O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha milliy markazi. – 2020. – 22-dekabr [Elektron resurs]. – URL: <https://nhrc.uz>
- Eshmatova F. O'zbekistonda olib borilgan gender siyosati inson huquqlari kafolatlanishining muhim mezonini // Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) rasmiy sayti [Elektron resurs]. – URL: <https://ombudsman.uz/uz/docs/ozbekistonda-olib-borilgan-gender-siyosati-inson-huquqlari-kafolatlanishining-muhim-mezoni-3>